

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ISOMIDDINOV YUNUSJON YUSUBBOEVICH

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA KORRUPSIYAGA QARSHI
KURASHISH MADANIYATI: ISLOHOTLAR VA ASOSIY
PARADIGMALAR**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертация доктора философии (DSc)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (DSc)
on philosophical sciences**

Isomiddinov Yunusjon Yusubboyevich

Globalashuv sharoitida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati:

islohotlar va asosiy paradigmalar 3

Isomiddinov Yunusjon Yusubboyevich

Антикоррупционная культура в условиях глобализации:

реформы и основные парадигмы 33

Isomiddinov Yunusjon Yusubboyevich

Anti-Corruption Culture in the Context of Globalization: Reforms and Key

Paradigms 65

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 73

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ISOMIDDINOV YUNUSJON YUSUBBOEVICH

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA KORRUPSIYAGA QARSHI
KURASHISH MADANIYATI: ISLOHOTLAR VA ASOSIY
PARADIGMALAR**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3. DSc/Fal142 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

G‘aybullaev Otabek Muhammadiyevich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

falsafa fanlari doktori, professor

falsafa fanlari doktori, professor

falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «__» _____ soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Talabalar shaharchasi, Universitet ko‘chasi. Tel.: (99871) 227-12-24, (99871) 246-02-24; e-mail:nauka@nuu.uz.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Talabalar shaharchasi, Universitet ko‘chasi, Toshkent shahar Yoshlar ittifoqi madaniyat saroyi. Tel.: (99871) 227-12-24; faks: (99871)246-02-24;

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil «__» _____dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

I.S.Saifnazarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

G.M.Shadimetova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa fanlari doktori, dotsent

O‘.G‘.Tilavov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda postmodern sotsiuning eng global destruktiv muammolaridan biri bu korrupsiya muammosi hisoblanadi. Bizga ma'lumki, korrupsiya jamiyatni rivojlanishiga qarshi qaratilgan harakat sifatida har qanday jamiyat va davlatda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. Korrupsiya rivojlangan davlatlar geosiyosiy muhokama predmetiga aylanib, uning barcha sohalariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi sun'iy to'siqlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababdan ham, korrupsiyani jamiyatda chuqur ildiz otishi, jumladan, transmilliy tusga ega bo'lishi, hozirgi zamonning eng xavfli ijtimoiy hodisasi sifatida qaraladi. Sodir etilgan korrupsiya har qanday davlatning nafaqat iqtisodiyotiga, balki uning ijtimoiy va siyosiy negizlariga ham pinhona zarba beradi. Davlatning xalqaro miqyosdagi obro'siga putur yetkazadi. Natijada, uning boshqaruv apparatiga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'ladi. Shu bois, korrupsiya rivojlangan davlat geosiyosiy muhokama predmetiga aylanib, uning barcha sohalariga destruktiv ta'sir ko'rsatuvchi sun'iy to'siqlarni yuzaga keltiradi. Shu sababdan ham, korrupsiyani jamiyatda chuqur ildiz otishi, jumladan, transmilliy tusga ega bo'lishi, hozirgi zamonning eng xavfli ijtimoiy hodisasi sifatida qaraladi. Chunki korrupsionerlarning asosiy maqsadi jinoiy xatti-harakatlar evaziga katta boylik orttirish, jamiyatda moddiy va ma'naviy qadriyatlarining buzilishiga erishishdan iborat. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashda kreativ tendensiyalarni ishlab chiqish, innovatsion yo'l bilan kurashish usullari va ijtimoiy mexanizmlarga ehtiyoj paydo bo'lmoqda.

Jahonda korrupsiya muammosini avj ola boshlashi bilan unga qarshi kurashga ijtimoiy gumanitar fanlarning qiziqishi ortib bormoqda. Falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisod, huquq fanlari doirasida jahonda yetakchi ilm markazlari davlat xizmatchilarining korrupsion xatti-harakatlariga qarshi o'ziga xos kreativ uslubiy mexanizm va postmodernistik paradigmalarni ishlab chiqishga harakat qilmoqda. Xususan, Human Rights Watch (AQSH), Stiltung Wissenschaft und Politik (Germaniya), Institute for International Political Studies (Italiya), China for International Political Studies (Xitoy), Chinese Academy of Social Sciences (Xitoy), Urban institute (AQSH), Transparency International (Germaniya) kabi ilmiy markazlarda korrupsiya sohasida konkret muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu ilm markazlarida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va ob'ekti sifatida alohida olingan korrupsionerga emas, balki ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarni bartaraf qilish va profilaktik choralari to'g'risidagi postmodernistik modellarni jahon hamjamiyatiga havola qilib kelmoqda.

Mamlakatimizda jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi korrupsiyani tadqiq qilish, jamiyatda barqaror vaziyatni qaror toptirish maqsadida olimlarimiz tomonidan korrupsiyaning yuzaga kelish sabablarini, sharoitlarini, uning tarixidan boshlab, bugungi kunga qadar rivojlanish va faoliyat usullarini, shakllarini, ijtimoiy xavfli harakatlarning xususiyatlarini o'rganish hamda jinoiy uyushmaning faoliyat ko'rsatishiga barham berish bilan bog'liq muammolar yechimini hal etilish

bo'yicha turli yondashuvlar, gepotezalar, paradigmalari ilgari surilmoqda. "Taraqqiyot kushandasi bo'lmish illat – korrupsiyaga qarshi mamlakatimizda keng ko'lamda kurash olib borilmoqda. Shu borada yangi tuzilma – Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini tashkil etganimiz bu masalaning dolzarbligi va doimiy e'tiborimizda bo'lishidan dalolat beradi"¹. Bugungi globalashuv jarayonida O'zbekistonda korrupsiyaning jamiyat rivojiga ta'sirini kamaytirish, davlat idoralarida korrupsiyaga qarshi kurashishda ochiqlikka erishish, insonning qadr-qimmatini e'zozlaydigan ijtimoiy boshqaruv mexanizmlarini joriy qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, So'nggi yillarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan 60 dan ziyod konseptual ahamiyatga ega me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, 2017 yildan buyon korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada yaxshilash bo'yicha 3 ta davlat dasturi, O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 2017 yil 3 yanvardagi O'RQ-419-son, 2019-yil 10-yanvardagi PF-5618-son "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida", 2019-yil 29-maydagi PF-5729-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 29-iyundagi PQ-4761-son "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida", 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son "Davlat boshqaruvi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaga qarshi kurashishga doir konseptual g'oyalar metodologik asos sifatida barcha davrlarda faylasuflar, huquqshunos olimlar tomonidan rivojlantirib kelmoqda. Bugungi kunda dunyoda korrupsiyani salbiy illat sifatida gavdalantiradigan ta'rifi ham, tavsifi ham ko'p. Korrupsiyani keltirib chiqaradigan ob'ektiv va subyektiv omillar, uni oldini olishga qaratilgan samarali yo'llari,

¹ <https://kun.uz/uz/45439121>

paradigmaları bo'yicha har yili sohalar kesimida minglab tadqiqotlar o'tkaziladi. Hattoki, korrupsiyani bartaraf etadi deya prognoz qilingan turli xil formulalar tuzib chiqiladi. Ammo, bu sohada eng samarali formula hali ishlab chiqilmagan. Chunki, bu illat oddiy jinoyat bo'lib ko'ringani bilan aslida uning keltirib chiquvchi sabablari nihoyatda chigal, moslashuvchan, murakkab fenomendir. Dunyoning bir hududida samara bergan usul boshqasi uchun samarasiz bo'lishi mumkin. Shu sababli har qaysi davlat bu illatga qarshi kurash texnologiyasini o'zi ishlab chiqishi, jahon tajribasi bilan omixtalashtirishi lozim.

Korrupsiyaning davlat xavfsizligiga ta'siri va korrupsion jarayonlarining dunyo davlatlari va madaniyatlariga ta'sirini inobatga olgan holda J.Svenson, R.Reinikka¹ kabi mualliflar o'rganishgan.

Tarkibiy-funksional jihatdan R.K.Merton, institutsional jihatlarini M.Veber, M.Dyuverje², S.P.Xantington³ kabi yevropalik olimlar tadqiq etishgan.

MDH hududidagi faylasuflarining taniqli namoyondalari I.Vinyukov, S.V.Vanyushkina, P.Andrukovich, Yu.Blagoveshchenskiy, V.M.Esipova, V.O.Pravnikov, V.V.Kulikova, M.Levina, A.S.Malchinova, E.N.Mislovskiy, V.A.Nomokonova, S.Z.Pavlenko, V.I.Popova, A.Ponomarenko, E.S.Sazonova, S.S. Sulakshinalar korrupsiya hodisasini ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va mafkuraviy jihatdan tahlil qilgan⁴.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham korrupsiyaga qarshi kurashishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tomonlari falsafiy tarzda o'rganilgan. Masalan, davlat boshqaruvida ijtimoiy mexanizmlarning roli, milliy davlatchilik rivojidagi mohiyati va falsafiy paradigmasining o'zgarishi I.Saifnazarov, B.Aliyev, I.Ergashev, N.Jo'rayev, F.Musayev, A.Saidov⁵, SH.Paxrutdinov, A.Raxmonov⁶, M.Bekmuradov, A.Qodirov, V.Qo'chqorov, F.Ravshanov va M.Qirg'izboyev⁷ tadqiqotlarida yoritilgan.

F.Jo'raqulov, Z.Zamonov⁸, J.Mavlonov, J.Yusubov, D.Ernazarov, B.Xasanov, S.Saidov kabi tadqiqotchilar korrupsiyaga qarshi kurashda davlat boshqaruvi organlarining siyosiy rolini, fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal qilishda o'zaro hamkorligi masalasiga alohida e'tibor qaratganlar.

Shunga qaramasdan, bugungi kunda korrupsiyaning davlat va jamiyat boshqaruviga ta'sirini kamaytirish masalalari bevosita ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazaridan yaxlit tadqiqot sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-

¹Reinikka, R., Svensson, J., Fighting corruption to improve schooling. Journal of the European Economic Association, 3(2-3), 2005. – P. 259-267.

²Дюверже М. Политические партии. – М.: Академический Проект, 2000. - 538 с.

³Хантингтон С. Политический порядок в меняющихся обществах. – М.: Прогресс-Традиция, 2004. – 480 с.

⁴ Mazkur mualliflarning asarlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati"da keltirilgan.

⁵ Saidov A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: mustaqil va demokratik taraqqiyotning huquqiy asosi. – Toshkent: Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, 2012. – B. 80.

⁶ Рахманов А.Р. Гражданское общество: достижение, проблемы, перспективы. – Ташкент: "Ал-Фаба-сервиз", 2007. – С.343.

⁷ Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B. 256.

⁸ Zamonov Z. O'zbekistonda demokratlashtirish jarayonlarida ma'naviy-axloqiy institutlarning o'rni va roli (mustaqillik yillarida): Falsafa fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 2019.

tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an‘analar va ularning zamonaviy ko‘rinishlarini targ‘ib etuvchi platforma yaratish” (2020-2022) mavzusidagi PZ-2020022811 raqamli amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi globallashuv sharoitida korrupsiyaning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ta‘sirini kamaytirishga xizmat qiladigan postmodernistik paradigmalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

rivojlangan mamlakatlardagi ma‘naviyat va ma‘rifat asosida korrupsiyaning davlat va jamiyat boshqaruviga ta‘sirini kamaytirishning turli modellari va konsepsiyalarini ochib berish;

korrupsiyani sotsiumga ta‘siri borasidagi tashkiliy paradigmadagi o‘zgarishlar tizimi, boshqaruv organlari va fuqaro munosabatlaridagi barqarorlikni izdan chiqaruvchi, o‘zgartiruvchi omillarni o‘rganish va tizimlashtirish;

korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro tajribasi ijobiy yutuqlarini o‘rganish asosida ijtimoiy-falsafiy profilaktikaning mexanizmlarini aniqlash;

jamiyat hayotida ijtimoiy hamkorlik tizimini izdan chiqaruvchi salbiy ijtimoiy fenomenlar ta‘sirining oldini olish va fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ta‘sirchan vositalarini takomillashtirish;

“korrupsiya” va “poraxo‘rlik” fenomenlarini siyosiy-huquqiy, ma‘naviy-axloqiy tahdid sifatida namoyon bo‘lish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida globallashuv sharoitida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish jarayonlari olingan.

Tadqiqotning predmeti globallashuv sharoitida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish orqali, uning davlat va jamiyat barqarorligiga ta‘sirini kamaytirishni ilmiy asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, sotsiologik kuzatuv, qiyosiy tahlil singari usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

rivojlangan mamlakatlarda ma‘naviyat va ma‘rifat asosida korrupsiyaning davlat va jamiyat boshqaruviga ta‘sirini kamaytirishning milliy modellari aniqlangan;

korrupsiyani sotsiumga ta‘siri borasidagi tashkiliy paradigmadagi o‘zgarishlar tizimi, boshqaruv organlari va fuqaro munosabatlaridagi barqarorlikni izdan chiqaruvchi, o‘zgartiruvchi omillarning ob‘ektiv qonuniyatlari (o‘zgarishlar, tahdidlarning muqarrarligi) va subyektiv qonuniyatlari (milliy mental xususiyatlar) ochib berilgan;

korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro tajribasi ijobiy yutuqlarini o‘rganish asosida ijtimoiy-falsafiy profilaktikaning gomeostazis (muvozanat) va sotsiostazis (o‘zini o‘zi tartibga solish) mexanizmlari vositasida ijtimoiy hamkorlikning ta‘minlanishi aniqlangan;

korrupsiyani jamiyat hayotidagi ta‘sirining kamaytirish maqsadida fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ta‘sirchan media vositalarini qo‘llash usullari takomillashtirilgan;

“korrupsiya” va “poraxo‘rlik” fenomenlarini siyosiy-huquqiy, ma’naviy-axloqiy tahdid sifatida namoyon bo‘lishning destruktiv, manipulyativ, esxatologik xususiyatlari, ularga qarshi kurashning ijtimoiy-falsafiy jihatlari asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tadqiqotdan olingan amaliy natijalar ma’naviyat va ma’rifat asosida korrupsiyaning davlat va jamiyat boshqaruviga ta’sirini kamaytirishda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yanada rivojlantirish va huquqiy demokratik davlat qurish islohotlarini, fuqarolar huquqiy ongi va madaniyatini yanada oshirish zaruratidan kelib chiqilgan holda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining optimal usul va mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar sifatida xizmat qiladi;

tadqiqotdan olingan ilmiy natijalar sifatida shakllantirilgan xulosalar, takliflar, tavsiyalar davlat va jamiyat boshqaruvining ochiqligi hamda shaffofligi, korrupsiyaning oldini olishda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokining samaradorligini kuchaytirishga asos bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyaning ilmiy xarakterini ochib berishdagi manbalardan foydalanishda, mavzuga oid usul va vositalarga nazariy yondashuvda, aprobatsiya asosida respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalarda, OAK va xorijiy jurnallarida nashr qilingan maqolalarda, dalillarni ochib berishda natijalarning tegishli vakolatli tuzilmalar amaliy faoliyatida foydalanilganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiyada ilgari surilgan konstruktiv-ilmiy xulosalar, fikrlar, taklif va tavsiyalardan ijtimoiy-gumanitar fanlar – siyosatshunoslik, boshqaruv menejmenti, siyosiy sotsiologiya kabi fanlaridan o‘quv adabiyotlari tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, ilgari surilgan taklif-tavsiyalardan davlat va jamiyat boshqaruvi tizimining barcha sohalari faoliyatida, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilayotgan – O‘zbekiston tarixi, ijtimoiy falsafa, falsafa, milliy g‘oya, huquqshunoslik, sotsiologiya fanlari bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Globallashuv sharoitida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati:islohotlar va asosiy paradigmalarda mavzusida amalga oshirilgan tadqiqoti ishi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

rivojlangan mamlakatlarda ma’naviyat va ma’rifat asosida korrupsiyaning davlat va jamiyat boshqaruviga ta’sirini kamaytirishga doir taklif va tavsiyalardan O‘zbekistonda oliy ta’lim sohasini takomillashtirishda Samarqand davlat chet tillar institutida Erasmus+ dasturining 2016-2018-yillarga mo‘lgallangan 561624-EPP-1-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: “O‘zbekistonda Oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” mavzusidagi loyiha doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 26-iyundagi №1886/30.02.01-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalar oliy ta’lim

muassasalari boshqaruviga jamoatchilik nazoratini kiritish, rahbariyat moliyaviy faoliyatini tanqidiy baholash mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

korrupsiyani sotsiumga ta'siri borasidagi tashkiliy paradigmadagi o'zgarishlar tizimi, boshqaruv organlari va fuqaro munosabatlaridagi barqarorlikni izdan chiqaruvchi, o'zgartiruvchi omillarning ob'ektiv qonuniyatlari (o'zgarishlar, tahdidlarning muqarrarligi) va sub'ektiv qonuniyatlariga doir taklif va tavsiyalardan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga doir qo'shma qarorlar loyihasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2023-yil 14-sentabrdagi 02/6-05-1337-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar mazkur tadqiqot ishi natijalarining ilmiy-amaliy jihatlari, metodologik g'oyalari, taklif-tavsiyalari hamda xulosalaridan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida milliy ma'ruzasini tayyorlash yuzasidan alohida reja jadval asosida tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qilgan;

korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro tajribasi ijobiy yutuqlarini o'rganish asosida ijtimoiy-falsafiy profilaktikaning gomeostazis (muvozanat) va sotsiostazis (o'zini o'zi tartibga solish) mexanizmlari vositasida ijtimoiy hamkorlikka oid taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "2022-2023-yillarda hududlarda yoshlarga oid davlat dasturlari ijrosini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar" dasturi va "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 20-iyuldagi 04-01/04/7254-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar yoshlarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiylash jamiyat taraqqiyotining garovi ekanligini inobatga olgan holda asoslangan dasturlarni ishlab chiqilishiga xizmat qilgan;

jamiyat hayotida ijtimoiy hamkorlik tizimini izdan chiqaruvchi salbiy ijtimoiy fenomenlar (byurokratiya, korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik) ta'sirining oldini olish maqsadida fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ta'sirchan media vositalariga oid taklif va tavsiyalardan "Mening yurtim" telekanalida "Markaziy studiya" information dasturini ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan ("Mening yurtim" telekanalining 2023-yil 31-iyuldagi 336/23-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yanada rivojlantirishga xizmat qilgan;

"korrupsiya" va "poraxo'rlik" fenomenlarini siyosiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy tahdid sifatida namoyon bo'lishining destruktiv, manipulyativ, esxatologik xususiyatlari, ularga qarshi kurashning ijtimoiy-falsafiy jihatlariga oid taklif va tavsiyalardan Samarqand radiosining 2023-yil yanvar va fevral oylari davomida efirga uzatilgan "Samarqand sadosi" eshittirishlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 7-iyuldagi 01-07/229-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarda radiotinglovchilarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha eng samarali usul bo'lgan jamoatchilik nazoratiga oid bilimlarini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 33 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan, 1ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 11 ta maqola (jumladan, 9 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya "Kirish", to'rtta bob, "Xulosa", "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati"dan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 266 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuni dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Korrupsiyaga qarshi kurashishning tarixiy – falsafiy jihatlar**" deb nomlangan birinchi bobi to'rt qismdan iborat. Bobda korrupsiya fenomenining genezisi, substansional komponentlari, evolyusiyasidagi transformatsiya ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu bobda korrupsiyani tarixiy ildizlari, uni oldini olish bo'yicha dunyo tamadduni tarixida qo'llanilgan eng samarali mexanizmlar, olimlar tomonidan korrupsiyaning yuzaga kelish sabablarini, sharoitlarini, uning tarixidan boshlab, bugungi kunga qadar rivojlanish va faoliyat usullarini, shakllarini, ijtimoiy xavfli harakatlarning xususiyatlarini o'rganishga oid ilmiy xulosalar asosidagi turli yondashuvlar, gipotezalar, paradigmalarni ilmiy-falsafiy tahlil qilingan.

Sotsiumning rivojlanib borishi bilan jamoat tuzilmalarining ishlash mexanizmlari ham takomillashib boradi, shu bilan bir qatorda korrupsiya munosabatlar ham murakkablashib, zamon ruhiga moslashib rivojlanib boradi. Antik davrda "korrupsiya" so'zi birinchi marta ishlatilgan bo'lsa-da, uning ma'nosi noaniq edi. Korrupsiya –lotincha Corruptere — buzmoq ma'nosida ishlatilgan. "Buzuq (lat.dan."corruptere") buzilgan ovqat bilan inson oshqozoniga zarar etkazish, yopiq turgan idishdagi suvni buzish, ishlab turgan biznesni buzish, to'plangan boyliklarni isrof qilish, jamiyatda yurish-turish, axloq qoidalarini buzish, imkoniyatlarni qo'ldan boy berish, yoshlik davrini maqsadsiz o'tkazish, ma'no-mazmunni buzish, inson qadr-qimmatni kamsitish ma'nolarini anglatgan. Shuningdek, dastlab korrupsiya so'zi, boshqa narsalar qatorida, hech qanday tarzda "buzilgan" ma'noda kimgadir pora berishni anglatmagan. Ammo, qadimgi Rimda "korrupsiya" atamasi bugungi zamonaviy ma'noda - sudda ko'rsatuvni pul evaziga

o'zgartirish va sudyaga pora berish ma'nosida qo'llanila boshlandi va birinchi marta rimliklarni XII mis taxtachasidagi jadval qonunlarida qonun buzilishi holati sifatida ro'yxatga olingan. Xususan, sudya yoki vositachi sud jarayonida (ishni sudda ijobiy ko'rish uchun) pul mukofotini qabul qilganligi aniqlansa, ularga o'lim jazosi tayinlanishi belgilangan¹. Jumladan, unda: "Nahotki siz sudda so'zlashda ishlarni tekshirish uchun tayinlangan va bu ish bo'yicha pora olgan sudya yoki vositachini o'lim jazosi bilan jazolaydigan qonunni shafqatsiz deb hisoblaysiz?"² Shunday qilib, korrupsiyaga qarshi kurash uchun ilk poydevor qo'yildi va uni me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik, diniy-futurologik jihatdan o'rganish boshlandi.

Ko'plab taniqli G'arb faylasuflari va davlat arboblari korrupsiya namoyon bo'lishini o'rganishga katta e'tibor berishgan. T. Gobss korrupsiya har doim va barcha vasvasalar bilan qonunlarni hurmat qilmasdan kelib chiqadigan ildiz, deb hisoblaydi. N. Makiavelli haqli ravishda davlatning ishlash mexanizmlarini, shu jumladan, korrupsiya munosabatlarini chuqur o'rganganlardan biri hisoblanadi. Olimning korrupsiya to'g'risidagi qarashlari hozirgi kungacha o'z dolzarbligini saqlab qoldi. Uning korrupsiyani iste'mol bilan taqqoslashini eslash kifoya, uni dastlab aniqlash oson, ammo davolash qiyin, agar kasallikka e'tiborsiz bo'lsa, uni aniqlash oson, ammo davolash juda qiyin³. Dante o'zining "Ilohiy Komideya"sida poraxo'rlarni jahannam gravining yettinchi qavatiga joylashtiradi.

Korrupsiyaning davlat xavfsizligiga ta'siri va korrupsion jarayonlarining dunyo davlatlari va madaniyatlariga ta'sirini inobatga olgan holda D.Kaufman, S.Melman, R.Renikka kabi mualliflar o'rganishgan.

Tarkibiy-funksional jihatdan R.K.Merton, institutsional jihatlarini G.A.Almond, M.Veber, M.Dyuverje, S.P.Xantington kabilar tadqiq etishgan.

Bundan tashqari, korrupsiya hodisasini ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va mafkuraviy jihatdan tahlil qilishda rossiyalik qator olimlar hamda tadqiqotchilarning roli katta. Ular qatoriga P.Andrukovich, YU.Blagoveshchenskiy, I.Vinyukov, S.V.Vanyushkina, V.M.Esipova, V.O.Pravnikov, V.V.Kulikova, M.Levina, A.S.Malchinova, E.N.Mislovskiy, V.A.Nomokonova, S.Z.Pavlenko, V.I.Popova, A.Ponomarenko, E.S.Sazonova, S.S. Sulakshinalarning ilmiy izlanishlarini keltirish lozim.

Tadqiqotchilardan X.Xaydenxaymer va V.M.Baranovlar korrupsiyani shartli ravishda quyidagi turlarga bo'lib tahlil qilgan:

1) "oq-yorqin", ya'ni, xizmat vazifalarni bajarmaganligi bilan bog'liq bo'lmagan, biroq, ko'rsatilgan xizmat uchun minnatdorchilik sifatidagi korrupsion fe'l-atvor;

2) "kulrang", ya'ni, mansab majburiyatlarini buzish bilan bog'liq bo'lgan korrupsion yurish-turish;

¹ Графский В. Г. Всеобщая история права и государства. – 2-е изд. — М. : Норма, 2007. – 752 с

² Таблица IX. 3. Авл. Гелий Законы XII таблиц. Хрестоматия по истории государства и права зарубежных стран / под ред. В. А. Томсинова. - М.: Зерцало, 1999. С. 120.

³ Макиавелли Н. Избранные произведения. – М.: Художественная литература, 1992. URL: <http://lib.ru/POLITOLOG/MAKIAWELLI/gosudar.txt>.

3) “qora”, ya’ni mansabni suiiste’mol qilish orqali jinoyatni sodir yoki uyushgan jinoyatchilikka qo’shib unda ishtirok etish orqali o’zining korrupsion xulq shaklida namoyon bo’ladigan korrupsiya kabilarga ajratadilar.

Korrupsiyani yuqorida keltirilgan barcha ta’riflarini umumlashtirib, korrupsiyaga quyidagi belgilar xosligini ko’rsatish mumkin.

- bu, avvalo, yagona yuridik ta’rifi bo’lmagan ijtimoiy hodisa; oxir-oqibatda u rivojlanayotgan butun fuqarolik jamiyati va davlatning zaiflashtirishga olib keladi, bunda korrupsiyaviy qilmishlar jamiyat hayotining kundalik normasiga aylanadi;

- mazkur huquqbuzarlik sub’ektlarining muayyan doirasi mavjud (bular. avvalo, davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo’lgan xizmatchilar, shaxslar, shuningdek, xususiy sektorda boshqaruv funksiyalarini bajarishga vakolatli shaxslardir);

- mazkur sub’ektlarning o’z xizmat mavqeyidan, egallab turgan lavozimining huquqiy maqomi va obro’sidan (fuqaro sifatida o’zining emas, balki aynan lavozimining obro’sidan) xizmat (ya’ni davlat xizmati va xususiy sektor tashkilotlaridagi xizmat) manfaatlariga hamda huquq va axloqiy belgilangan qoidalariga xilof tarzda foydalanishlari mumkin.

Korrupsion faoliyat haqidagi g’oyalar evolyutsiyasini falsafiy jihatdan bir necha davrlarini ajratib ko’rsatish mumkin. Ulardan birinchisini korrupsiya muammosining shakllanishi, dolzarbligi va uning ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri sifatida tavsiflash kerak. Bu qadimgi sivilizatsiyalar davridan boshlanib, 19-asrning oxirigacha davom etdi. Dastlabki davlat birlashmalarining paydo bo’lgan davrdan (mamlakatimiz hududida taxminan bundan 3000-2800 yillar ilgari) boshlab korrupsiya va unga qarshi kurash olib borishning evolyutsion tarzda rivojlanish bosqichlarini formatsion emas, balki, sivilizatsion yondashuv tamoyillariga mos ravishda: 1) qadimgi (arxevik); 2) o’rta asrlar; 3) yangi va eng yangi davrlardagi ob’ektiv va sub’ektiv omillarning talablaridan kelib chiqqan holda tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.

“Korrupsiya” atamasi bu faqat yuridik atama emas, balki ijtimoiy-falsafiy, siyosiy yoki kriminologik tushunchadir, shuning uchun, uni aniqlangan jinoyatlar sifatida emas, balki ijtimoiy hodisa sifatida ko’rib chiqish kerak.

Shunday qilib, “korrupsiya” tushunchasidan foydalanish uchta asosiy xususiyat bilan tavsiflanadi:

Birinchisi, har qanday faoliyatida ham o’z manfaati yo’lida kimgadir nima berish yoki nimadir olish evaziga ehtiyojini qondirishi bevosita korrupsiyaga bog’liq bo’ladi;

Ikkinchisi, pora beruvchi va pora oluvchi tomonlar ko’pincha pul evaziga amalga oshirilishi kerak bo’lgan muayyan harakatlar to’g’risida emas, balki oldindan kelishib olishadi. Bunday holda, pora predmeti mustaqil emas, balki xaridorga bog’liq bo’lgan shaxsga aylanadi: u sotilmoqda – u o’z obro’sini, kelajagini o’ylamasdan, mavjud imkoniyatdan foydalanib qolish yo’larini izlaydi. Bunday holat har qanday shaxsning amalga oshirayotgan mehnat faoliyatidagi pillapoyalariga salbiy ta’sir qiladi. Chunki sotuvchi tomon haq evaziga nima qiladi, u qanday mukofot oladi va buzuq odam nima qiladi, unga nima kerak.

Uchinchisi, korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmning yaqin aloqasi bilan bog'liq bo'lib, bu BMTning ko'plab hujjatlarida ta'kidlangan. Asosiy korrupsiyalashgan odamlar bu iqtisodiy va boshqa uyushgan jinoyatchilar, terroristik va boshqa jinoiy guruhlar, ular tomonidan boshqariladigan qonuniy yoki huquqiy tuzilmalardir.

Faylasuflar korrupsiya quyidagi belgilariga ko'ra ajratadilar

1) hokimiyatga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa manfaatlarga bevosita zarar yetkazish; 2) davlat xizmatchilari oladigan har qanday imtiyozlarning noqonuniyligi; 3) davlat xizmatchisining o'z maqomidan davlat xizmati manfaatlariga zid ravishda foydalanishi; 4) davlat hokimiyati manfaatlariga davlat xizmatchisining ob'ektiv ravishda zarar yetkazadigan harakatlarni (harakatsizlik aktini) sodir etish niyati; 5) mansabdorning yollanma yoki boshqa manfaatdorligi.

Umuman olganda, korrupsiya bugungi kunda bir qator turlarni o'z ichiga oladi:

1) Muayyan sub'ekt sifatidagi yo'nalishiga ko'ra:

- mamlakat boshqaruvida ishtirok etayotgan xodimlar faoliyatidagi korrupsiya;
- ayrim shaxslarning xususiy sektor negizidagi korrupsion jarayon;
- davlat boshqaruvidagi shaxslarning siyosiy korrupsiyasi;

2) Muayyan daraja maqomiga ko'ra:

- oddiy daraja ko'rinishida;
- yuqori darajali ko'rinishda;
- vertikal ko'rinishda;
- gorizontal ko'rinishda.

3) Davlat va jamiyat boshqaruvidagi xavflilik holatiga ko'ra:

- korrupsiyaning salbiy illatligi;
- korrupsiya – jamiyatdagi jinoyat ekanligi.

Shuningdek, korrupsiyani bir nechta asosiy turlarga ajratish mumkin:

1. Sub'ektlarning maqomiga ko'ra:

- hokimiyat organlaridagi korrupsiya;
- xususiy sektordagi korrupsiya;
- siyosatdagi korrupsiya yoki siyosiy korrupsiya;

2. darajasiga ko'ra:

- quyi darajadagi korrupsiya;
- yuqori darajadagi korrupsiya;
- vertikal korrupsiya;

3. ijtimoiy-xavfliligiga ko'ra:

- korrupsiya - qilmish;
- korrupsiya - jinoyat.

Davlat boshqaruvida korrupsiya ko'proq 3 ta shaklda namoyon bo'ladi. Ular:

- ijtimoiy muhitdan kelib chiqqan holda amaldor shaxs o'z mansabidan foydalanib, tanish-bilish yoki qarindosh-urug'lari orqali qonunga qarshi harakatlarni amalga oshiradi;

- ayrim kimsalarning o'z maqsadi yo'lida mansabda turgan shaxsni pora evaziga o'ziga qaram qilishi va shunday manfaat ko'rish ga asoslanadi. Bunda turli

ko‘rinishdagi sovg‘a yoki mukofotlarning qonunga zid ravishda amalga oshirilishi namoyon bo‘ladi;

- korrupsiyaning bu shaklida jinoyatchilik bilan bog‘liq faoliyat asosiy maqsad bo‘lib, unda mansabdor shaxsni jinoyatga olib boradigan yo‘llar bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Natijada, mansabdor shaxs o‘zi anglamagan yoki tushungan holda mazkur jinoyatni amalga oshiradi. Korrupsiyadagi bunday falsafiy ko‘rinish bir necha kishining uyushgan jinoyatchilikni xoh majburiy, xoh ixtiyoriy bajarishi bilan yakun topadi.

Korrupsiyaning rivojlanish evolyutsiyasidan kelib chiqib, uni destruktiv fenomen sifatida quyidagicha tahlil qilamiz:

- korrupsiya jamiyatda mavjud muhitni salbiy tomonga ketishiga, ijtimoiy jarayonlar buzilishiga sabab bo‘ladi¹:

- ma‘muriy huquqbuzarliklar, masalan, ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksning tarkibiga kiruvchi byudjet mablag‘lari va byudjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari va ko‘plab tashkilotlarning ichki ishlariga aralashish orqali mablag‘larni noqonuniy o‘zlashtirish;

- mansabdor shaxslarning o‘z lavozimlaridan foydalangan holda shaxsiy ehtiyojlari uchun muayyan mablag‘larini qo‘lga kiritishi;

- ta‘qiqlangan fuqarolik bitimlari (sovg‘ani qabul qilish, uchinchi shaxslarning davlat xizmatchisiga xizmat ko‘rsatishi va boshqalar).

Dissertasiyada korrupsion munosabatlar tipologiyasi quyidagi turlari ajratib ko‘rsatilgan: 1. Pora berish; 2. Proteksionizm; 3. Xufiya lobbizmi; 4. Favoritizm; 5. Nepotizm; 6. Siyosiy korrupsiya; 7. Davlat mablag‘larini shaxsiy foydalanish uchun noqonuniy o‘zlashtirish. Mazkur salbiy illatlarning davlat va jamiyat boshqaruviga ta‘sirini korrupsion omillar sifatida ko‘rsatish mumkin.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Huquqiy, ma‘naviy-axloqiy madaniyatni yuksaltirish korrupsiyani oldini olishning asosiy paradigmasi sifatida**» deb nomlangan. Ushbu bobda korrupsiyani oldini olishning falsafiy asoslari va imkoniyatlarga e‘tibor qaratilgan. Ushbu bobda huquq, ma‘naviy-axloqiy madaniyat fenomeni va uning ijtimoiy falsafiy talqini borasidagi ilmiy, nazariy-falsafiy qarashlar hamda ularni korrupsiyani oldini olishda asosiy paradigma sifatida tahlil qilinadi. Huquq fenomenini o‘rganishga bag‘ishlab ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgani aks etgan. Ularda tadqiqotchilar bir narsada, ya‘ni huquqni pozitiv voqelik ekanini ta‘kidlashda yakkidligi ochib beriladi. Ushbu bobda tarixiy-huquqiy meros, manbalar asosida, birinchidan, huquq avvalo, tor doiralardagi shaxslar va guruhlarining manfaatlariga xizmat qilgani; ikkinchidan, huquq asosan taqiq, jazolash mexanizmlariga qurilgani; uchinchidan, to XIX asrgacha majburlash usuli ustuvor bo‘lib kelgani masalalari ijtimoiy-falsafiy jihatdan yoritiladi. Mazkur bobda huquqiy savodxonlik va boshqaruv faoliyati o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik, ularning sotsioaksiologik negizlari orqali muhim qadriyatlarga aylanishi ochib beriladi. Ilmiy adabiyotlarda huquq alohida qadriyat sifatida qaralsada, uning boshqaruv tizimi bilan bog‘lanib kelishi negizida yuzaga

¹ Потомский В.В. Антикоррупционная политика России: тенденции и формирования и реализации // Среднерусский вестник общественных наук. – 2017. – № 1. – с. 130–135.

keladigan qator muammolar tadqiq etilmaydi. Bu tadqiqotlarning maqsadi va mavjud muammolarni nazariy-falsafiy va ijtimoiy-amaliy hal etish tajribasi bilan bog'liqdir. Bobda ushbu yo'nalishdagi nafaqat nazariy-falsafiy, shuningdek, ijtimoiy-amaliy ahamiyatga ega masalalar tadqiq qilinadi.

Korrupsiya kishilarning huquq va erkinliklarini tahqirleydigan salbiy hodisa sifatida barcha davlatlarda mavjud. Insonning rivojlanishi, huquq va erkinliklarining maksimal darajada amal qilishiga yordam beradigan qonun ustuvorlik qiladigan huquqiy davlat korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maqsadli siyosatni amalga oshiradi.

Huquqiy savodxonlik va boshqaruv ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida e'zozlanadigan qadriyatlar sifatida shakllangan. Ularning sotsioaksiologik voqeliklar ekani isbot talab etmaydigan aksiomadir. Ular negizi, sustansional asosi – davlat va jamiyat, ularning butun organizm sifatida yashashi talabidir. Aynan ushbu talab kishilarni boshqaruv institutlariga ishonchini shakllantirgan, erkin shaxs, sub'ekt sifatida ijtimoiy munosabatlarga kirishib yashashiga imkon bergan.

Boshqarish ishlari ierarxiya (subordinatsiya) va koordinatsiya prinsiplariga quriladi. Ierarxiya subordinatsiya prinsipi ijtimoiy boshqaruv tizimi sub'ektlarini birining ikkinchisiga bo'ysunishi, kichik vazifalardagilarning yuqori vazifalardagilarga itoat etishi, quyi institutlarning yuqori yoki oliy boshqaruv institutlariga bog'liqligini anglatadi. Ierarxiya subordinatsiya ijtimoiy boshqaruv faoliyatiga oid qadriyatlar hisoblanadi, birorta jamiyat va davlat ularsiz faoliyat yuritgan, vazifalarini bajargan emas. Ularning sotsioaksiologik ahamiyati huquq va boshqaruv faoliyatini tizimli tarzda bir-birlariga bog'laydi, qabul qilingan qarorning izchillik va har bir pog'onada kerakli darajada bajarilishini ta'minlaydi. Huquq fenomeni ham, boshqarish faoliyati ham birinchi navbatda ierarxiya subordinatsiya aloqalarini yo'lga qo'yishni ko'zlaydi, rejalashtirilgan vazifalarini shu zahoti tizimlar va institutlar o'rtasida taqsimlashga kirishadi

Dissertatsiyaning ushbu bobida korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligi aholining ma'naviyat darajasi va axloq-odobi, demokratiya qoidalariga sodiqligiga bog'liq ekanligi ilmiy tahlil qilingan. Shunday qilib, respublika davlat organlari tizimi-da ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda quyidagi asosiy masalalar hal qilinib, ular zamirida korrupsiyaga qarshi ma'rifat amalga oshiriladi:

– davlat organlari xodimlarida Vataniga, kasbiy burchiga sodiqlikni shakllantirish;

– davlat organlari xodimlarida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, sohaviy buyruqlarga og'ishmay rioya qilish ruhida tarbiyalash;

– davlat organlari xodimlarini aholi orasidagi obro'-e'tiborini fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, xizmat vazifalarini, xizmat intizomi me'yorlarini, qonuniylik va kasb madaniyati talablarini bajarish orqali mustahkamlash;

– davlat organlari xodimlarida yuksak ma'naviyat va qonun ustuvorligi asosida yashaydigan, yuqori darajada huquqiy ong va madaniyatga ega bo'lgan fuqaro, vatanparvar, o'z kasbining mohir ustasi axloqiy-ruhiy sifatlar kompleksini yaratish va rivojlantirish.

Davlat boshqaruvi apparatida amaldorlarni axloqiy buzish bu mansabdor shaxsning g'ayriqonuniy boyishinigina emas, balki axloq va huquq nuqtayi nazaridan boshqa salbiy hodisalarni, tanish-bilishchilik (proteksionizm), oilaparastlik, urug'-aymoqchilik (nepotizm) mansabdor shaxsni buzuvchi aloqalarni anglatadi. Yuqorida keltirilgan hodisalardan eng ko'p kuzatiladigani tanish-bilishchilik, urug'chilik jihatlariga ega hodisa»¹. Tanish-bilishchilik korrupsiya elementi sifatida jazoga loyiq hodisadir. Poraxo'rlikni davlat xizmatchisining xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilish orqali boyishi sifatida ta'riflash mumkin bo'lsa, tanish-bilishchilik mansabdor shaxsning o'z atrofiga sadoqatli, ammo har doim ham bilimli bo'lmagan qarindosh, do'stlar, o'z odamlarini yig'ib olish orqali shaxsiy hokimiyatini mustahkamlashidir.

O'rta asrlarda Sharqda ham poraxo'rlik va korrupsiya qattiq qoralangan. Xususan, "Shohnoma" (Firdavsiy), "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Hojib), "Dastur ul-muluk" (Imom -G'azzoliy), "Kitob ul-vuzaro" (Xilol), "Irshod"(Yoqut), "Kitob ud-diyorat" (Shabushtiy), "Siyosatnoma" (Nizomul-mulk), "Qobusnoma" (Kaykovus), "Dastur ul-vuzaro" (Xondamir), "Axloqi Muhsiniy", "Anvori Suhayliy" (Koshifiy) kabi asarlarda jamiyatda ijtimoiy adolat o'rnatish, korrupsiyaga qarshi keskin chora ko'rish masalalari bayon qilingan. Shuningdek, o'rta asrlardagi davlat arboblari va davlat boshqaruvi bilan bog'liq bo'lgan, davlat mansablariga tanlashga doir adolat qoidalari va qadriyatlar Shaxobiddin Muhammad an-Nasaviyning "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti", Xusayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoni", "Axloqi muhsiniy", Zahridin Muhammad Boburning "Boburnoma", Zayniddin Vosifiyning "Badoye ul-vaqoe" kabi, Abu Rayxon Beruniyning "Javohirnoma", Abu Homid G'azzoliyning "Nasihah ul-muluk", Muhammad Avfiyning "Jomi' ul-hikoyot", Faxriddin Ali Koshifiyning "Latoif at-tavoif", Majdiyning "Ziynat ul- majolis", Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Qozi Axmad G'afforiyning "Nigoriston", Poshshoxojaning "Miftox ul-adl", Mirxondning "Ravzat us-safo", Xondamirning "Dastur ul-vuzaro", "Xulosat ul-axbor" kabi asarlarida ham o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning «**Jamoatchilik boshqaruv tizimini takomillashtirish korrupsiyaga qarshi kurashishning ta'sirchan vositasi**» deb nomlangan uchinchi bobi to'rt qismdan iborat.

Mazkur bobda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida yurtimizda faoliyat olib borayotgan fuqarolik jamiyati institutlarining oldida turgan vazifalar, jamiyatda ijtimoiy nazorat tizimini ta'minlashga qaratilgan demokratik islohotlarning yangicha rivoji, davlat va jamiyat boshqaruvidagi mavjud muammolarni yechimini topishga doir masalalarga e'tibor qaratilgan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlarda ijtimoiy huquqiy mexanizmlarni yangilash, boshqaruv tizimini modernizatsiyalash asosida fuqarolik jamiyati institutlariga keng imkoniyatlarni yaratish, ularning istiqboldagi rejalarini yanada takomillashtirish mumkinligiga doir qarashlar ochib beriladi.

¹ К.С. Бельский Об уточнении понятия "коррупция" // Государство и право – 2012 й.№12. – С.24.

Bobda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning barcha sohalarga oid antikorrupsion choralar tizimining ishlab chiqilishi masalasi, shuningdek, ijtimoiy nazoratning jamoatchilik bilan boshqarilishi, o'zini o'zi boshqarish tizimiga xos muammolar, ularning falsafiy yechimlari e'tiborga olingan.

Davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabat, davlat faoliyati ustidan jamiyat nazorati zarurligi haqida umumiy mazmundagi dastlabki qarashlar: Platon, Aristotel, Sitseron, T.Gobbs. J.Lokk, SH.L.Monteske, J.J.Russo, G.Gegel, I.Kant, M.Veber, shuningdek, O'rta Osiyo ma'rifatchilari va siyosiy arboblardan Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Amir Temur kabi buyuk allomalar asar va qarashlarida o'z ifodasini topgan.

Fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan mexanizmlar monitoring bilan bog'liq bo'lib, bu mamlakatda, mintaqada, shahar hokimiyatidagi vaziyatni o'rganishga imkon beradi. Korrupsiyaning oldini olish mexanizmida qonunning roli muhim o'rin tutadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi faoliyatini takomillashtirishdagi muhim mexanizmlar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- avvalo moddiy rag'batlantirish;
- tiyib turish tizimini takomillashtirish;
- fuqarolik jamiyati va hokimiyat o'rtasidagi ratatsiyani keng joriy qilish;
- jamoatchilik nazoratining rolini oshirish.

Ijtimoiy nazorat tartibga solish sohasi va jamiyatda mavjudligiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- oila nazorati;
- jamoatchilik nazorati
- diniy nazorat;
- davlat nazorati va boshqa shunga o'xshash nazorat institutlari.

Ilmiy adabiyotda ijtimoiy nazoratning quyidagi uch funksiyasi ajratiladi:

- barqarorlashtiruvchilik funksiyasi, bunda mazkur jamiyatga xos bo'lgan muhim ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tuzilmalari qayta ishlab chiqariladi, shakllantiriladi;

- maqsadli funksiya, uning mazmuni va yo'nalishi mazkur ijtimoiy tizimning tarixan shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-huquqiy tavsifiga va uning bir-birini o'rnini egallaydigan turli tip jamiyatlarning rivojlanishida tutgan o'rniga bog'liq:

- muhofaza etish funksiyasi. Ijtimoiy nazoratning maqsadi bo'lib konformizm-moslashuv, ya'ni shaxsning umum qabul qilingan normalar bilan tashqi jihatdan roziligi, qo'shiluvi hisoblanadi. "Tashqi jihatdan roziligi" deyilishining boisi shundaki, shaxs umume'tirof etilgan normalarga ichki jihatdan rozi bo'lmasligi mumkin, biroq, bu haqda hech kimga aytmassligi mumkin.

Yuqoridagi tasnifda ko'rsatilgan davlat nazorati asosiy o'rinni egallaydi va u ijtimoiy nazoratning bir turi hisoblanadi. Ya'ni, qonunchilikning buzilishi, kishilar fuqarolarning huquqlari va erkinliklari va qonuniy manfaatlarini kamsitilishi, davlat mablag'larini talon-taroj qilinishi kabi korrupsion holatlarni oldini olishga yo'naltirilgan davlat idoralari, tashkilotlari faoliyatidir.

Mamlakatimizning 40 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatida jamoatchilik nazorati soʻzi qoʻllanilgan normalar mavjud boʻlib, ularda bevosita jamoatchilik nazoratini amalga oshirish vakolatiga ega subʼektlar aniq belgilab qoʻyilgan. Mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish organlari va fuqarolar ham shunday subʼektlarni tashkil etib, salkam 20 ta qonun hujjatida ularning jamoat nazoratini amalga oshirishiga vakolat beruvchi normalar huquqiy jihatdan kafolatlanadi.

Bugungi kunda barcha boʻgʻindagi hokimlar, vazirlik va idoralar, prokuratura, sud-huquq va ichki ishlar organlari rahbarlari, deputat va senatorlar bevosita joylarga chiqib, oʻz faoliyati boʻyicha xalq oldida hisobot berish amaliyoti yoʻlga qoʻyildi. Shunisi ahamiyatliki, bu hisobotlar shunchaki oʻqib eshittirish uchungina emas. Bundan buyon turli toifadagi mansabdorlar faoliyatiga xalqimizning baho berayotgan kuzatilmoqda. Endi rahbarning lavozimiga loyiqligi yoki loyiq emasligini xalqimiz belgilab beradigan boʻlmoqda. Bunday tartib rahbarni xalqimiz oldidagi masʼuliyatini yanada oshiradi. Endi davlat tuzilmalari jamiyatga, inson manfaati yoʻlida xizmat qiladigan boʻladi.

Bugungi kunda davlat boshqaruvi va hokimiyati organlarida, shu jumladan ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq boʻlgan tadbirkorlik subʼektlarida va davlat unitar korxonalarida ochiqlikni taʼminlash boʻyicha ishlarning samaradorligini baholashga qaratilgan **Ochiqlik indeksi** joriy etiladi.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasi quyidagi 8 ta indikator asosida baholab boriladi:

- davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlikni taʼminlashga masʼul boʻlgan xodimlar faoliyatining samaradorligi;
- davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida axborotlarni joylashtirish va elektron davlat xizmatlari koʻrsatish holati;
- ijtimoiy ahamiyatga molik maʼlumotlarni qonunchilikda belgilangan axborot resurslarida eʼlon qilish va jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimining yoʻlga qoʻyilishi;
- byudjet jarayonining ochiqligini taʼminlashga oid maʼlumotlarning rasmiy veb-saytda joylashtirilishi;
- Ochiq maʼlumotlar portalida maʼlumotlar joylashtirilishi;
- ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinishi;
- korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishda ochiqlik tamoyillaridan foydalanish holati.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan har yil yakuni boʻyicha Davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlik indeksi shakllantiriladi va «eanticor.uz»¹ elektron platformasi va OAV orqali ochiq eʼlon qilib boriladi.

Davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlik darajasi «0» balldan «100» ballgacha reytingda baholanib, quyidagi toifalarga ajratiladi:

- 71 balldan 100 ballgacha — «**yashil**»
- 55 balldan 71 ballgacha — «**sariq**»
- 55 balldan past — «**qizil**»²


¹ <https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/15/transparency-index/>

² <https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/15/transparency-index/>

Korrupsiyaning oldini olishning yana bir innovatsion yo‘li bu davlat xizmatlarini raqamlashtirishdir. Bu o‘rinda O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu strategik vazifani ro‘yobga chiqarish, amalga oshirishga AKT vazirligi zimmasiga yuklatilgan. Mazkur vazirlik tomonidan barcha OAV muharrirlari va mediamarkazlar rahbarlari bilan har oyda uchrashuv o‘tkaziladi, muvofiqlashtirish komissiyasining yig‘ilishlarida mamlakatimizda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishning yaxlit tizimini yaratish borasidagi tajribalar umumlashtiriladi va navbatdagi ishlar rejalashtiriladi. Bugun ushbu yaxlit tizim yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) hisoblanadi. Unda 209 ta xizmat turi ko‘rsatiladi. Bugun undan 450 mingdan ziyod kishi foydalanmoqda. Bu “fuqarolar emas hujjatlar harakati” tamoyilining ijtimoiy hayotimizga joriy etilayotganidan dalolat beradi. “Elektron hukumat” tizimi doirasida “Yagona ijtimoiy reestr”, “Elektron kundalik”, “Elektron poliklinika” “Raqamli bojxona” tizimlari joriy etilgan. Strategiya doirasida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va Yagona identifikatsiya tizimi modernizatsiya qilindi. Axborot texnologiyalar tizimida 9363 ta korxonalar faoliyat yuritadi, ulardan 2874 tasi kompyuter dasturlash xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashgan, 450tasi “IT park” rezidensiyalaridir.


Tadqiqot ishi bo‘yicha “Globallashuv sharoitida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati” mavzusi doirasida sotsiologik so‘rov o‘tkazildi. Ma’lumotlarni to‘plash usuli sifatida online so‘rovi tanlandi. Tanlovda jami **450** respondent ishtirok etdi. Tadqiqotda ishtirok etgan demografik bo‘limda ishtirok etgan respondentlarning 47,5 foizi erkak va 52,5 foizi ayollardan iborat.

Sotsiologik so‘rov davomida korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha mutasaddi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida bilasizmi?” deb berilgan savolga respondentlarning 61,6%i – “Men bu haqida hech narsa bilmayman”, 16,7%i – “menga ma’lum, lekin aniq bilmayman”, 14,5%i – “aniq javob bera olmasligi”ni, 7,3%i esa – “menga ma’lum, ular faoliyatini doimiy ravishda kuzatib boraman” (qarang 8-rasm) ko‘rsatib o‘tgan. Manbalarda ta’kidlanishicha, bu mazmundagi savollarga aholi o‘rtasida aniq javoblar olish qiyin, to‘g‘ri javobni belgilamaslikka sababi qo‘rquv tuyg‘usi bo‘lishi mumkin.



“Sizningcha, davlat korrupsiyaga qarshi kurashish uchun qanday ishlarni amalga oshirmoqda?” savoli keltirilganda 58,7% kam sonli ishlar amalga oshirilyapti, 52,3% islohotlarni amalga oshirish orqali kurashmoqda, 33,3% hech narsa amalga oshirilmayapti, 27,4% javob berishga qiynalaman (qarang 1-chizma). Olingan natijalarni ko‘rib tahlil qiladigan bo‘lsak, aholi o‘rtasida bunday harakatlarni yoyilishiga ruhiy bosim orqali, turli aldov yo‘llari bilan jalb etilayotganini tushunib borishmoqda.


“Sizningcha, davlat korrupsiyaga qarshi kurashish uchun qanday ishlarni amalga oshirmoqda?” savoli keltirilganda 58,7% kam sonli ishlar amalga oshirilyapti, 52,3% islohotlarni amalga oshirish orqali kurashmoqda, 33,3% hech narsa amalga oshirilmayapti, 27,4% javob berishga qiynalaman (qarang 1-chizma). Olingan natijalarni ko‘rib tahlil qiladigan bo‘lsak, aholi o‘rtasida bunday harakatlarni yoyilishiga ruhiy bosim orqali, turli aldov yo‘llari bilan jalb etilayotganini tushunib borishmoqda.



“Quyidagi davlat tashkilotlarga qanday baho berasiz, ular qanchalik halol va korrupsiyadan xoli yoki aksincha, insofsiz va korrupsioner?” savoliga respondentlarning aksariyati quyidagi davlat hokimiyati va tashkilotlarning ya‘ni, shahar, tuman hokimiyati faoliyati juda vijdotsiz va insofsiz ekanligi, Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati, klinikalar va shifoxonalarda korrupsiya holati mavjudligini ko‘rsatganlar. Albatta ushbu harakatlarni oldini olish uchun davlat siyosatini kuchaytirish lozim.

Sizningcha, so‘nggi 2 yil ichida sizning yashash joyingizda korrupsiya holatlari ko‘payganmi, kamayganmi yoki korrupsiya darajasi o‘zgarmaganmi?

“Umuman mamlakatimizda, sizning fikringizcha, oxirgi yillarda korrupsiya holatlari ko‘paydimi yoki kamaydimi? Korrupsiya darajasi avvalgidek saqlanib qoldimi?”. Mazkur savol tahlilida, 27,4% nisbatan kamaydi, 35,1% javob berishga qiynalaman, 21,7% daraja o‘zgarmagan, 15,8% ko‘proq kuzatildi javoblarini belgiladilar.



Xulosa o'rnida aytganda, so'rov korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha hayotga tatbiq etilayotgan chora-tadbirlarning fuqarolar tomonidan yakdillik bilan qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatdi. Ularning ishonch bildirishicha, bu sa'y-harakatlar mazkur salbiy illatni jamiyat hayotidan ildizi bilan yo'q qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Globalashuv sharoitida korrupsiya: xalqaro hamjamiyatning korrupsiyaga qarshi harakatlari”** deb nomlanib, 4 ta paragrafdan iborat.

Bugunga kelib dunyo mamlakatlarida korrupsiyaning miqyosi va darajasi oshayotgani kuzatilmoqda. Masalan, Daniya, Finlyandiya, Singapur, Yangi Zelandiyada korrupsiyaning ko'lami past darajada bo'lsa, Somali, Sudan kabi davlatlarda esa korrupsiyaning miqyosi va darajasi keskin oshgan. Bunday o'sish dunyo davlatlari korrupsiyaga qarshi kurash uchun milliy va xalqaro darajalarda ko'plab huquqiy hujjatlar qabul qilgan hamda ko'p sonli ijro idoralariga ega bo'lgan hozirgi sharoitda yuz berayotganligi hammani tashvishga solayotganligi sir emas.

Korrupsiyaga qarshi kurash doirasida milliy va xalqaro miqyosda olib borilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish uchun korrupsiyani tan olish, uning davlat va jamiyatga ta'sir etish darajasini tushunish kerak. Ko'pincha, hukumatning korrupsion jarayonlarga munosabati “Transparency International” xalqaro tashkiloti tashkil etgan korrupsiyaga moyillik indeksidan foydalanib o'lchanadi.

Har bir davlat organi korrupsiyaga qarshi kurashga o'z munosabatini bildiradi, mustaqil ravishda ushbu kurashda yo'naltirilgan choralarni ko'radi. Ushbu yo'nalishda hali katta yutuqlarga erishmagan davlatlardagi korrupsiyaga qarshi kurash tahlili tadqiqot ishining muammolarini hal qilishda ham muhim tutadi. Ularning tajribasi boshqa davlatlar va butun dunyo hamjamiyatini korrupsiyaga qarshi kurashda ilgari qilingan xatolaridan ogohlantirishi mumkin. Yuqoridagi reytingda eng kam korrupsiyaga uchragan davlatlar: Yangi Zelandiya, Daniya, Finlyandiya, Shveysariya, Shvetsiya, Singapur, Norvegiya, Gollandiya, Lyuksenburg, Germaniya, Islandiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstriya, Avstraliya, Gonkong, Belgiya, Irlandiya, Estoniya, Yaponiya davlatlari TOP 20 talikni tashkil etadi¹. Yuqoridagi davlatlar korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurashmoqdalar va so'nggi o'n yil ichida reytinglarda yuqori o'rinlarni egallab kelmoqdalar. Albatta, korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurashayotgan barcha davlatlar bu muammoni ularning xavfsizligiga tahdid deb bilishadi.

Dunyodagi mamlakatlarda korrupsiyaning mamlakat boshqaruvi, iqtisodiyoti va boshqa sohalariga ta'sirini xalqaro nodavlat-notijorat “Transparency International” - tadqiqotlariga asosan baholab kelinadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Kengashi, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti va Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish yo'llarini ishlab chiqish hamda a'zo mamlakatlar tomonidan keng qo'llash bo'yicha bir qator chora-tadbirlar ko'rayotganligiga qaramasdan, shuningdek, korrupsiyaga qarshi

¹<https://www.transparency.org/ru/cpi/2019/results/table>.

kurashish yuzasidan Xalqaro Gallup instituti (American Institute of Public Opinion, Gallup), Bazel qo‘mitasi, INDEM fondi (INDEM foundation) va «Transparency International» xalqaro nodavlat tashkilotlari tomonidan olib borilayotgan keng ko‘lamli tadqiqotlarga qaramay korrupsiyaga qarshi kurashish dolzarb ekanini ta’kidlaganlar.

Qonunchilik tahlili korrupsiya bilan bog‘liq qilmishlarga qarshi kurashish faoliyatining huquqiy asoslari ko‘proq O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksida o‘z ifodasini topgan.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mustahkam qonuniy asosni yaratdi. Hukumat ushbu illatni yo‘q qilish uchun turli nodavlat notijorat tashkilotlari, birinchi navbatda fuqarolik jamiyati institutlarining salohiyatiga tayanadi. Shu sababli, bugungi kunda korrupsiya xatarlariga qarshi muvaffaqiyatli kurashish uchun davlat va “uchinchi sektor”ning sa’y-harakatlarini birlashtirish kerak va korrupsiya muammolarini hal qilish mexanizmi sifatida davlatning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’rifiy va tashviqot salohiyatidan foydalanish zarur¹. Yuqoridagi vazifalarni bartaraf etishning innovatsion yo‘li sifatida biz hududlarimizda ijtimoiy-huquqiy laboratoriyalarni ko‘paytirishimiz zarur. Ular jamiyatga bepul xizmat ko‘rsatishi uchun grantlar orqali ularni rag‘batlantirib turishimiz muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda davlat va jamiyat boshqaruvida “korrupsiyasiz soha” umumiy ob’ekt sifatida inson va uning manfaatlari o‘rtaga qo‘yildi. Insonning ongli mavjudot sifatida aqlli, idrokli hatti-harakatlari, axloqiy ideallari, yurish-turishlari, turmush tarzi, muomalasi, odobi, urf-odatlari korrupsiyaga qarshi kurashish mezoni milliy mentalitetda o‘z ifodasini topdi. Bu jarayon turli korrupsion mexanizmlarsiz insonparvar, adolatli jamiyat qurishning mazmun va mohiyatidan kelib chiqadigan ob’ektiv zaruriyatdir.

Bugun jamiyatda “korrupsiyasiz soha” asosida salbiy illatlardan xalos bo‘lish – huquqiy ong va milliy mentalitetni shakllantirish va yuksaltirish dolzarb masaladir. Fuqarolarda korrupsiya illatiga qarshi turuvchi milliy g‘urur, iftixor tuyg‘usi, ijodkorlik, shijoat, Vatanga muhabbat va istiqbolga ishonch kabi tasavvurlarni rivojlantirishimiz darkor.

Korrupsiya mamlakatimizda mavjud, uni inkor qilib bo‘lmaydi, albatta. Shu bilan bir qatorda ba’zi omillar uning asta-sekin o‘sib borishiga ham sabab bo‘lmoqda.

Ana shu omillarning mavjudligidan foydalangan «manfur kimsa»lar, hokimiyat tizimlari tarkibiga suqilib kirib olish va undan boylik to‘plab olish uchun quyidagi harakatlarni:

1) amaldor, huquqni muhofaza qilish, sud, soliq, bojxona, ta’lim, tibbiyot yoki ma’muriy muassasalar, shuningdek, har qanday xususiy korxonaning mansabdor shaxsiga pora berish;

2) mahalliy yoki chet el amaldori va xalqaro tashkilot amaldorini pora berish orqali sotib olish;

¹ Абрамов Р.А. Вопросы формирования антикоррупционного мировоззрения в обществе // Актуальные проблемы экономики и права.– 2014. – № 3.– С. 178-186.

3) davlat mansabdor shaxsi tomonidan mulkni talon-taroj qilish, g'ayriqonuniy o'zlashtirish yoki undan maqsaddan tashqari foydalanish;

4) shaxs tomonidan shaxsiy boylik orttirish yoki uchinchi shaxsning boyishi maqsadida o'z obro'si yoki xizmat mavqeidan foydalanish;

5) korrupsiya harakatlaridan daromad olish;

6) oshna-og'aynigarchilik yoki urug'-aymoqchilikni qo'llab quvvatlash va shu kabilarni sodir etmoqda. Ularning bunday g'ayri qonuniy xatti-harakatlarini "korrupsion harakatlar" deb atash mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Umuman olganda "O'zbekistonda korrupsiyaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi uchta asosiy omil mavjud.

Birinchidan, yetarli bo'lmagan ochiqlik va ma'lumotning yo'qligi. Davlat idoralarining yopiqligi sababli ommaviy axborot vositalari ham o'z vazifalarini to'liq bajara olmaydilar.

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati ishtirokining etishmasligi. Hukumat idorasi, hattoki bizning agentligimiz hech qachon fuqarolik jamiyati ishtirokisiz korrupsiyaga qarshi samarali kurasha olmaydi. Buning uchun esa kuchli fuqarolik jamiyati zarur.

Uchinchidan jazosiz qolish hissi. Albatta, qonunchiligimizda poraxo'rlik uchun jazo choralari ko'zda tutilgan. Ammo ma'lum vaqt o'tgach, biz pora olganlarni yana davlat organlarida, qaysidir tashkilotlarda ko'ramiz. Odamlar bunday jiddiy qonunbuzarlik ham qoralanmaydi va hatto qayerdadir kechiriladi degan fikrga borishi mumkin. Kimdir, demak, menga ham mumkin deb o'ylaydi, agar qo'lga tushsam ham, ikki yoki uch yil o'tirib chiqaman va davom etaman degan xayolga boradi. Bu ham muhim omil.

Globalashuv sharoitida mamlakatimizda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishning eng samarali yo'nalishlaridan birini taktik va strategik usul va vositalar tashkil qiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi deb mamlakatimizda mavjud bo'lgan moddiy va ma'naviy resurslardan samarali foydalanishorqali korrupsiyani batamom yo'q qilish uchun uzoq muddatga mo'ljallangan vazifalarni belgilab olish va uni bajarishga qaratilgan tadbirlarni ilmiy- amaliy jihatdan tashkil qilish san'atiga aytiladi.

O'zbekiston davlatining korrupsiyaga qarshi kurashdagi strategik ahamiyatga molik bo'lgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari etib:

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash belgilangan.

Nazarimizda, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaning oldini olish borasida 4 ta boshqaruv mexanizmlariga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir:

1. Fuqarolarda halollik va poklikni shakllantiradigan rag‘bat tizimi. Ushbu jarayon orqali hammaga mehnatiga yarasha haq to‘lash, ayrim korrupsiyani oldini olishda xizmat ko‘rsatgan fuqarolarni rag‘batlantirish, halollik bilan yashayotgan va ishlayotgan shaxslarni davlatning lavozimlarida ishlash tizimini ishlab chiqish lozim.

2. Korrupsiyaning oldini oladigan milliy va xalqaro ta‘sir tizimi. Ushbu faoliyatda davlat boshqaruviga mansabdorlar aralashuvini kamaytiradigan axborot texnologiyalarini joriy etish asosida inson omilining ta‘sir kuchini kamaytirish, jamiyatda barcha sohalarda raqamli iqtisodiyotga o‘tish tizimini kuchaytirish, davlatning monitoring jarayoni nazoratida raqamlashtirish, lavozimlarga tayinlash jarayonida tanlovning haqqoniyligini ta‘minlash, davlatda xarid tizimini shaffofligi va soddaligiga erishish lozim. Davlatning qonunlarini xalqaro normalariga mosligi va ularning jahon tajribasiga rioya etilishini nazoratini oshirish kerak. Bunda xalqaro hujjatlarda korrupsiyaning oldini olish, xorijiy hamkorlarga keng imkoniyatlar yaratish bo‘yicha turli korrupsion holatlarning kamayishiga erishish singari masalalar yechimini topishi lozim.

3. Ma‘naviy islohotlarning korrupsiyaga ta‘siri. Fuqarolarda korrupsion holatlarga nisbatan keskin kurashish tuyg‘usini oshirish, jamiyatda huquqiy savodxonlikning yuksalishiga doir diniy va dunyoviy islohotlarni ko‘paytirishdir.

4. Korrupsiyaning oldini olishda oshkoralik tizimi. Ushbu jarayonda birinchi navbatda davlat boshqaruvida turgan shaxslarning faoliyatini uzluksiz ravishda kuzatish, davlatda barcha boshqaruv organlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, davlat amaldorlarining xalqqa hisobdorlik tizimini kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashishda faol bo‘lgan nodavlat-notijorat tashkilotlar yoki tashkilotlarning nazorat tizimini mustahkamlash, jamiyatda “to‘rtinchi hokimiyat”ga qonun doirasida keng imkoniyatlarni berish maqsadga muvofiqdir.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda milliy darajada yoki hududiy, mahalliy, sohaviy, idoraviy darajalarda qo‘yilgan maqsadlarga qarab, ulardan quyidagicha foydalanishga qaratilgan fikrlarni yuritishimiz mumkin.

- *milliy darajada uzoq va o‘rta muddatlar uchun qabul qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarga* – strategiya yoki milliy strategiya (masalan, 2015-2025-yillar uchun Qozog‘iston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi¹, Buyuk Britaniyaning 2017-2022 - yillar uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasi², Estoniyada 2013-2020 - yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha strategiya³, AQShning 2021-yildagi Korrupsiyaga qarshi strategiyasi⁴, Rossiya Federatsiyasida Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy strategiyasi⁵ va h.k.);

- *milliy darajada o‘rta va qisqa muddatlar uchun qabul qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarga* – davlat dasturi, milliy

¹Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti. https://www.akorda.kz/ru/legal_acts/decrees/obantikorrupcionnoi-strategii-respubliki-kazahstan-na-2015-2025-gody

² <https://www.gov.uk/government/publications/uk-anti-corruption-strategy-2017-to-2022>

³https://www.korrupsioon.ee/sites/www.korrupsioon.ee/files/elfinder/dokumendid/strategiya_po_borbe_s_korrupciy_v_2013-2020_gg.pdf

⁴<https://www.whitehouse.gov/wp-content/uploads/2021/12/United-States-Strategy-on-Countering-Corruption.pdf>

⁵ <https://rg.ru/documents/2010/04/15/nacstrategiya-dok.html>

dastur, milliy reja (masalan, O‘zbekistonda – 2017-2018-yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturi¹, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021-2022-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi², 2015-2025-yillar uchun Qozog‘iston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha 2018-2020-yillar uchun chora-tadbirlar rejasi³, Rossiya Federatsiyasida – 2021-2024-yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish milliy rejasi⁴ va h.k.);

- *hududiy (mintaqaviy) darajada qabul qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarga* – chora-tadbirlar dasturi, “Yo‘l xaritasi” (masalan, Toshkent viloyatida 2021-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yo‘l xaritasi, Toshkent viloyatida korrupsiyaga qarshi kurashish, byudjet mablag‘larining hamda yerlarning talon-toroj qilinishining oldini olish tizimini takomillashtirish bo‘yicha 2022- yilga mo‘ljallangan yo‘l xaritasi, Krasnoufimsk shahar okrugida (RF) 2021-2023-yillar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi⁵, Irbit shahar hokimligining 2021-2023- yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha harakatlar rejasi⁶ va h.k.);

- *sohaviy darajada qabul qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarga* – *chora-tadbirlar rejasi*, chora-tadbirlar dasturi, yo‘l xaritasi va h.k. (masalan, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 05.04.2022-yildagi 7-sonli bayonnomasi⁷ bilan tasdiqlangan “Kapital qurilish sohasida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish yuzasidan 2022-2023-yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”, Oliy ta‘lim sohasida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish yuzasidan 2022 -2023-yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”, Sog‘liqni saqlash tizimida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish yuzasidan 2022-2023-yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”, Davlat xaridlari sohasida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish yuzasidan 2022-2023-yillarda mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”, Davlat organlari va tashkilotlari hamda mahalliy hokimliklarda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” va h.k.);

- *idoraviy darajada qabul qilinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarga* – *reja*, dastur, dastur, yo‘l xaritasi va h.k. (masalan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi raisi va Transport vaziri tomonidan 15.03.2020-yilda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tizimida 2020-yilda korrupsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”, O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 20.02.2019-yildagi 63-son burug‘I bilan tasdiqlangan

¹ <https://lex.uz/docs/3105125>

² <https://lex.uz/docs/5495529>

³ Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti.. https://www.akorda.kz/ru/legal_acts/decrees/obantikorrupcionnoi-strategii-respubliki-kazahstan-na-2015-2025-gody

⁴ <https://base.garant.ru/402619978/>

⁵ <https://go-kruf.midural.ru/article/show/id/10197>

⁶ https://moirbit.ru/obschestvo/obschestvennaya_bezopasnost/protivodeystvie_korrupsii/plan_protivodeystviya_korrupsii/

⁷ Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rasmiy sayti. <https://anticorruption.uz/uzc/item/milliy-kengash-hujjatlari>

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi¹, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat bojxona qo‘mitasining 2021-2022 -yillarga mo‘ljallangan Dasturi² va h.k.).

Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi falsafiy paradigmalarda deb korrupsiyaga qarshi kurash haqidagi g‘oyalar, qarashlar va tushunchalarning yetakchi tizimini belgilash uchun ishlatiladigan dastlabki konseptual sxemalar, muammolarni qo‘yish va ularni hal qilish modellari, tadqiqot usullari, ularni amalga oshirishning taktikasi va strategiyasi haqidagi postulatlar va standartlar tizimiga aytiladi. Bu borada yaratilgan falsafiy paradigmalarni;

a) tarixiy makon va zamonda joylashgan o‘rniga qarab – qadimgi, o‘rta asr, yangi va eng yangi davrdagi;

b) jazolarni qo‘llash usul va vositalariga qarab – qilmishiga yarasha qonunlarda belgilangan tartibda jazolash;

v) subyektlari bo‘yicha – individual, jamoaviy;

g) axloqiy-ma‘naviy ta‘siriga qarab – jamoa oldida uyaltirish, tadbirlariga qo‘shmay izza qilish va boshqa shu kabilarga ajratish mumkin.

Bu paradigmalarni quyidagi davlatlar misolida ko‘rish mumkin.

1. Singapurning korrupsiyaga qarshi kurashdagi falsafiy paradigmasi va uni amalga oshirish strategiyasi. Singapur korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi o‘zining qat‘iyiligi va izchilligi bilan ajralib turadi. Bu mamlakatdagi falsafiy paradigma “korrupsiyani nazorat qilish mantiq” ga asoslanib: “korrupsiyani yo‘q qilishga urinishlar ham rag‘batlantiruvchi, ham shaxsni korrupsiyaviy harakatlarni sodir etishga undash uchun imkoniyat yaratadigan sharoitlarni minimallashtirish yoki yo‘q qilish istagiga asoslangan bo‘lishi kerak”³, - degan g‘oyaga asoslanadi. Bu paradigmadagi: *birinchidan*, mansabdor shaxslarning harakatlarini tartibga solish; *ikkinchidan*, byurokratik protseduralarni soddalashtirish; *uchinchidan*, yuksak axloqiy-ma‘naviy me‘yorlarga rioya qilish ustidan qat‘iy nazoratni kuchaytirish masalasi ilgari surigan edi.

2. Shvetsiyaning korrupsiyaga qarshi kurashdagi falsafiy paradigmasi va uni amalga oshirish strategiyasi. XIX asrning o‘rtalariga qadar Shvetsiyada korrupsiya rivojlangan mamlakat edi. Bundan qutilish yo‘lini o‘zida aks ettiruvchi falsafiy paradigmaning o‘ziga xos xususiyatlari: *birinchidan*, merkantilizm va uning oqibatlarini tugatish; *ikkinchidan*, barcha pog‘onadagi mansabdorlar uchun yuksak darajadagi axloqiy-ma‘naviy normalarni ishlab chiqish va ularga amal qilishni ta‘minlash; *uchinchidan*, mustaqil va adolatli sud tizimini yaratish kabilar bilan tavsiflanadi. Shunga ko‘ra mamlakatni modernizatsiya qilishda merkantilizmni yo‘q qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rildi. O‘shandan beri davlat tomonidan tartibga solish firmalarga qaraganda ko‘proq uy xo‘jaliklariga qaratildi, bunda e‘tibor taqiqlash va ruxsatnomalar berishga emas, balki imtiyozlarni soliqlar yukini kamaytirish va shu kabilar orqali berishga qaratildi.

¹ Adliya vazirligi rasmiy sayti. <https://minjust.uz/uz/anticorruption/documents/>

² Davlat bojxona qo‘mitasi rasmiy sayti. https://customs.uz/uploads/390d852a-3b8f-5ad3-266e-382a39d414e3_media_.pdf

³ ВЦИОП — Сингапурская стратегия борьбы с коррупцией (недоступная ссылка). Дата обращения: 25 сентября 2006. Архивировано 29 апреля 2005 года.

Ichki davlat hujjatlaridan foydalanish imkoniyati ochildi, mustaqil va samarali sudlovga asoslangan adolat tizimi yaratildi.

3. Buyuk Britaniyaning korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasi. Buyuk Briniyada korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratining tartib-taomillaridan samarali foydalanishga asoslangan bo'lib, u xalqaro standartlarga muvofiq ochiq hukumatning asosiy institutlari ma'lumotlarining ochiqqligi; davlat xizmatchilarining fuqarolar oldida hisobdorligi va faoliyatining ochiqqligi; ularni amaliyotga joriy qilishga mo'ljallangan huquqiy normalar ishlab chiqilganligi, ya'ni, o'zining demokratik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirganligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Angliyaning korrupsiyaga qarshi kurash qonunida mansabdor shaxslar va xizmatchilar qanday hadyalar olish huquqiga ega ekanliklari aniq-ravshan qayd etilgan. bu faqat Rojdestvo munosabati bilan taqdim etiladigan sovg'alarga tegishli, shuningdek, yondaftarchalar, sharikli ruchkalar, taqvimlar ham hadya sifatida qabul qilinishi mumkin, faqat bunday tuhfalarning narxi juda arzon bo'lishi hamda ularda mansabdor shaxsga minnatdorchilik bildirmoqchi bo'lgan kompaniya yoki shirkatning korporativ belgilari tasvirlanmagan bo'lishi talab qilingan.

Mansabdor shaxs bundan boshqa barcha hadyalarni rad etishi lozim. Mabodo, tuhfa xorijiy kompaniya hodimi tomonidan taqdim etilgan bo'lsa, davlat xizmatchisi uni qabul qilishdan oldin o'zi bevosita buysunadigan yuqori darajadagi mansabdor shaxsni ogohlantirib qo'yishi zarur, bunday hollarda, odob nuqtayi nazaridan hadyalar qabul qilinadi.

Ekspertlarning ta'kidlashlaricha, yirik korrupsion mashmashalar vaqti vaqti bilan ro'y berib turibdi. "SputnikNews" axborot agentligining xabariga ko'ra, britaniyalik qonun ijodkorlarini o'z iqtisodiy manfaatlari yo'lida qonunlar yaratishga undab, ularga tasir o'tkazishga urinish bilan bog'liq yashirin korporativ bosimlar uchun har yili 3 mlrd AKSH dollari miqdorida mablag' sarflanadi va parlament a'zolariga maslahatchi sifatidagi rollari uchun 5,2 mln dollarga yaqin mablag' to'lanadi.

5. Kanadaning korrupsiyani oldini olish borasidagi taktikasi. 1985-yilda Kanada davlat xizmatchilarining axloq kodeksini qabul qildi, unda barcha davlat xizmatchilari o'zlarining xizmat vazifalari va shaxsiy manfaatlariga zid kelganda amal qilishlari kerak bo'lgan odob-axloq qoidalari mavjud. Qoidalar korrupsion jinoyatlarning oldini olishga, barcha davlat xizmatchilari uchun davlat xizmatidagi "manfaatlar to'qnashuvi" nuqtayi nazaridan va u ishdan bo'shatilgandan keyin "agar ular jamoat manfaatlariga zid keladigan bo'lsa, ularning yuzaga kelishi va hal etilishi ehtimolini minimallashtirishga" qaratilgan aniq xatti-harakatlar standartlarini o'rnatishga qaratilgan.

Ushbu Kodeks 4 qismdan iborat. Birinchi qismda xulq-atvorning umumiy tamoyillari shakllantirilgan bo'lib, ularga davlat xizmatchilari amal qilishi shart. Shunday qilib, davlat xizmatchisi "manfaatlar to'qnashuvi" ning haqiqiy ehtimolini, uning ko'rinishi va yuzaga kelishi uchun sharoit yaratilishini istisno qilish uchun zarur bo'lgan barcha narsani qilishga majburdir .

Kanadalik davlat xizmatchilariga shaxsiy manfaatlarga ega bo'lish tavsiya etilmaydi, kodeks tomonidan ruxsat berilgan hollar bundan mustasno, ular tegishli ishlarni amalga oshirishda shaxsan ishtirok etgan taqdirda, ular ishlayotgan idoraga bevosita va jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Davlat xizmatiga kirishda xodimlar "shaxsiy manfaatlar to'qnashuvi" ehtimolini istisno qiladigan tarzda shaxsiy ishlarini qayta tashkil etishlari shart. Agar u paydo bo'lgan bo'lsa, uni jamoat manfaati yo'lida hal qilish kerak.

Davlat xizmatchilari naqd pul bilan ifodalanishi mumkin bo'lgan turli xil sovg'alar, in'omlar olish huquqiga ega emaslar. Xususiy korxonalar yoki shaxslarga hukumat bilan ishlarida yordam berish maqsadida, ular o'z vazifalarini bajarishdan chetga chiqishiga yo'l qo'yilmaydi.

6. Daniyada korrupsiya bilan kurashish usuli. Daniyada korrupsiyaga qarshi jamiyatning barcha a'zolarining qonunga so'zsiz itoat qilish hamda umuminsoniy va milliy axloqiy-ma'naviy tamoyillarini uyg'unlashtirgan holda kurashishga qaratilgan bo'lib, bu amaldorlarning halolligi, buzg'unchilarni uyaltirish orqali amaldorlarning davlat idoralarining shaffof faoliyatini yo'lga qo'yishga asoslanadi.

Daniyaning korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurashi o'n ettinchi asrga borib taqaladi. Daniya qirolligi 1660-yillardan boshlab davlat xizmatchisining xulqiga oid qonunlarni qabul qilgan. 1676-yildagi farmonga ko'ra, davlat xizmatchilarining sovg'a olishi taqiqlangan. 1700 davlat yildan poraxo'rlikka qarshi chiqarilgan qonun harbiy, diniy va davlat xizmatlari sohalarida qo'llanilgan. Qirol Frederik VI pora olgan davlat amaldori umrbod qamoq jazosini tayinlagan. Keyingi asrlarda qonunlar takomillashib, o'n to'qqizinchi asrga kelib davlat boshqaruvida poraxo'rlik korrupsiyaning eng kam tarqalgan shakliga aylandi. Shu yillar fuqarolar qirolga to'g'ridan-to'g'ri shikoyat qilishlari juda osonlashadi. Qonunlarning ta'sirida keyinchalik pora olmaslik va bermaslik, halol mehnat aksariyat daniyaliklarning axloqiy tamoyiliga aylangan.

7. Yaponiyada korrupsiyaga qarshi kurash paradigmasi. Korrupsiyaga qarshi kurashilishiga qaramay, biznes va ijro hokimiyatning chatishib ketishi amaliyoti Yaponiya jamiyatiga chuqur singib ketgan bo'lib, korrupsiyaga qarshi qonunchilik, axloqiy kodekslarni ishlab chiqish, mansabdor shaxslarning daromadlarini deklaratsiyalash va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan boshqa nazorat usullarining joriy etilishi yetarli darajada korrupsiyaga qarshi vosita deb hisoblash mumkin emas. Hattoki korrupsiyani anglash indeksi yuqori bo'lmagan Yaponiyada ham korrupsiya fenomenini yo'q qilish uchun jamoat tashkilotlari va adliya tizimlari tomonidan ko'proq nazorat ishlarini olib borish talab etiladi.

Iqtisodiyotga davlatning aralashishi, jamoat ishlariga, masalan, yo'l qurilishi uchun katta mablag' ajratilganida ham namoyon bo'ladi. Ushbu yo'llarni qurayotgan xususiy kompaniyalar davlatning tegishli idoralari mutasaddilari bilan chambarchas bog'liqdir. Albatta, pudratchilarni qidirish raqobatbardoshlik prinsiplari bo'yicha olib boriladi, ammo bu ish rasmiy ravishda amalga oshiriladi, natijada Yaponiyada ko'pincha byurokrat, siyosatchi va ishbilarmonlar o'rtasida "temir uchburchaklar" paydo bo'ladi. Bunday uchburchaklar hatto liberal

demokratlarning parlamentdagi monopoliyasi tugaganidan keyin ham yo‘qolmadi. Hozirda Demokratik partiya hokimiyat tepasida, ammo uning tarkibida liberal-demokratlardan chiqqan ko‘plab yuqori martabali shaxslar bor, ular uchun esa, funksional jihatdan amalda hech narsa o‘zgargani yo‘q.

XULOSA

Ilmiy ish doirasida korrupsiyaga qarshi kurash sohasida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar, xorijiy davlatlarning tajribalarini umumlashtirish asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Korrupsiya jarayonlari murakkab va xilma-xil bo‘lib, ular jamiyatning barcha jabhalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy sohada korrupsiya cheklovchi vazifani bajaradi: bozor iqtisodiyoti sharoitidagi raqobat, mahsulot sifatining pasayishiga va uning qiymatining oshishiga yordam beradi va resurslarning notekis taqsimlanishini ta‘minlaydi. Ijtimoiy sohada korrupsiyaning namoyon bo‘lishi qonunlarning samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi, shuningdek, jamoatchilik ishonchini pasaytiradi, jamiyat resurslarini tor guruhlar foydasiga qayta taqsimlanishi tufayli aholining ijtimoiy tabaqalanishining oshishiga yordam beradi.

2. Korrupsiya ko‘pincha amaldor shaxs tomonidan o‘zining manfaatlarini qarindosh-urug‘lari, tanish-bilishlari, sadoqatli kishilar tomonidan mavjud qonunlarni buzish orqali turfa xildagi jinoyatlar turkumiga kirishi bilan boshqa jinoyat turlaridan ajralib turadi.

3. Xorijiy davlatlarning korrupsiyaga murosasiz kurashishi natijasida bu illatning kamayishiga erishilganligini jahon tajribasi bugungi kunda isbotlab turibdi. Korrupsiyaning halokatli oqibati uning hayotning barcha jabhalariga salbiy ta‘siri bo‘lib, jamiyatning me‘yoriy ishlashiga to‘sqinlik qiladi.

4. Korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmning yaqin aloqasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu BMTning ko‘plab hujjatlarida ta‘kidlangan. Asosiy korrupsiyalashgan odamlar bu iqtisodiy va boshqa uyushgan jinoyatchilar, terroristik va boshqa jinoiy guruhlar, ular tomonidan boshqariladigan qonuniy yoki huquqiy tuzilmalardir.

5. inson taraqqiyoti butun dunyo uchun korrupsiya xavfining keskin oshishiga olib keldi. Ammo taraqqiyot, shuningdek, uni keltirib chiqaradigan salbiy hodisalar va tahdidlardan himoya qilish tizimini yaratishga xizmat qilishi mumkin. Yangi voqelik bizni jamiyat korrupsiya xavfiga qarshi turishi mumkin bo‘lgan vositalar vositasiga yangidan qarashga majbur qiladi. Qaysi bir davlat o‘z faoliyatida korrupsiyaga nisbatan keskin islohotlarni amalga oshirsa, bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy samara berishi mumkinligi nuqtayi nazaridan eng samarali strategiya hisoblanadi;

6. korrupsiyaga qarshi kurashning dunyo tan olgan usullarini paradigmal xususiyatini, xorijiy davlatlarning modellarini, dunyoda korrupsiyaning keltirib chiqargan zararli oqibatlarini chuqurroq anglagan holda, boshqa davlatlarda ushbu salbiy illatning oldini olish borasida to‘plangan ulkan tajribani o‘rganish, mamlakatimizning iqtisodiy, siyosiy, madaniy salohiyatidan kelib chiqqan holda

“Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy strategiya”ni ishlab chiqishga hissa qo‘shish va bu borada ushbu davlatlarning ilg‘or tajribalari va usullariga atroflicha yondashish masalalari ko‘rib chiqildi.

7. bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda davlat boshqaruvida korrupsion holatlarning oldini olishga qaratilgan ishlarini tashkil etishda bu salbiy illatning ta’sirini kamaytirish samaradorligini oshirish,

8. davlat va jamiyat boshqaruvida barcha sohalarda tashkilot va korxonalar o‘zlarining ichki axloqiy me’yorlari nizomiga ega bo‘lishi, korrupsion holatlarning oldini olishga doir yangi g‘oyalarni tatbiq etib borishi lozim. Chunki fuqarolarda adolat, pok vijdonlilik, iymon, e’tiqod tushunchalariga munosabat kuchli bo‘lsa, bu o‘z-o‘zidan korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

9. har bir fuqaroda bu salbiy illatga nisbatan nafratni kuchaytirish, buning uchun jamiyatda huquqiy savodxonlik madaniyatini o‘stirish, voqelikka nisbatan ma’lum ma’nodagi huquqiy me’yorlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Shu tarzda, ijtimoiy hayotda fuqarolar huquqiy ongida korrupsiyaga qarshi kurashishga doir malaka va ko‘nikmalar shakllanib boradi.

10.. Bugun jamiyatda “korrupsiyasiz soha” asosida salbiy illatlardan xalos bo‘lish – huquqiy ong va milliy mentalitetni shakllantirish va yuksaltirish dolzarb masaladir. Fuqarolarda korrupsiya illatiga qarshi turuvchi milliy g‘urur, iftixor tuyg‘usi, ijodkorlik, shijoat, Vatanga muhabbat va istiqbolga ishonch kabi tasavvurlarni rivojlantirish lozim.

11. Korrupsiyaga qarshi kurashda “Fuqarolik surishtiruvi” jamiyatda ko‘plab ijobiy ijtimoiy xususiyatlarga xizmat qiladi. Bunda fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish, davlatga tegishli va nodavlat tashkilotlarida mavjud korrupsion holatlar va ularning darajasi to‘g‘risida ma’lumot olish, jamoatchilik nazorati jarayonida fuqarolik jamiyati vakillarining ishtirokini baholash, analiz qilish va samaradorligini yanada oshirish uchun takliflar ishlab chiqish uchun imkoniyat yaratiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar xulosasidan kelib chiqib, quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ma’lumotlar veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida ochiq va foydalanish imkonini beradigan darajada joylashtirish, korrupsiya bo‘yicha xabar berish vositalari, qisqa telefon raqamlarini ommalashtirish, xabar berganlarni rag‘batlantirish choralari ko‘rish, ijtimoiy tarmoqlardagi botlar imkoniyatidan ham foydalanish lozim.

2. Televideniye va radioeshittirishlar, maxsus intervyular, bosma ommaviy axborot vositalarida korrupsiyaga qarshi targ‘ibotni tashkil etish, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ijtimoiy reklamalarni joylashtirish, barcha davlat organlarining rasmiy veb-saytlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limlarini yaratish va doimiy ravishda yangilab borish.

3. Коррупция ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларида тобора кучайиб бораётган ҳозирги шароитда, фуқаролик жамияти нормалари ва қонун устуворлигини жамият ҳаётига киритиш орқали коррупция даражасини пасайтиришда маълум ижобий ўзгаришларга олиб келиш зарур.

4. Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашиш Агентлигининг жойларда бўлимларини ташкил этиш ҳамда бу иллатга нисбатан курашишда давлат ва нодавлат ташкилотларининг ролини ошириш, жамоатчиликнинг назоратини кучайтириш ва унинг салоҳиятига таяниш керак.

5. Davlatning vakolatli organlarining nazorat-tekshiruv vazifalarini maqbullashtirish, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tekshirish tizimini takomillashtirish, ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini yanada takomillashtirilgan holda mustahkamlash.

6. Korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqib jamiyatda real ishlaydigan strategiyani ishlab chiqish asosida korrupsiyaga qarshi kurashish, masalan mamlakatimizda davlat xizmatlari agentligini tashkil etilganligi va xalqimizga xalqaro talablar asosida xizmat qilinayotganligi, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishning yangi bosqichini boshlab berilganligi fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish daxldorligini oshirishda muhim qadam va huquqiy yechimlardan biri bo'layotganligini qayd etish, tushuntirish hamda ommaviy axborot vositalarida keng targ'ib qilish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.F.01.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА**

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

ИСОМИДДИНОВ ЮНУСЖОН ЮСУББОЕВИЧ

**АНТИКОРРУПЦИОННАЯ КУЛЬТУРА В УСЛОВИЯХ
ГЛОБАЛИЗАЦИИ: РЕФОРМЫ И ОСНОВНЫЕ ПАРАДИГМЫ**

09.00.04 – Социальная философия

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФСКИХ НАУК (DSc)**

Ташкент – 2024

Тема диссертационной работы доктора философских наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2022.3. DSc/Fal142

Диссертация выполнена в Самарканском институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (русском, узбекском и английском (резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета (ik-falsafa.nuu.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:

Гайбуллаев Отабек Мухаммадиевич
доктор философских наук, профессор

Официальные оппоненты:

доктор философских наук, профессор

доктор философских наук, профессор

доктор философских наук, профессор

Ведущая организация:

Защита диссертации состоится «__» _____ 2024 года в 14.00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.F.01.05 при Национальном Университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, улица Университетская, Дворец культуры Союза молодежи города Ташкента. Тел.: (+99871) 227-12-24; факс: (+99871) 246-53-21; (+99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz) в здании Дворца культуры Союза молодежи города Ташкента.

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Национального Университета Узбекистана (зарегистрирована за №155). Адрес: 100174, г. Ташкент, Университетская улица, дом 4. Административное здание Национального Университета Узбекистана, 2 этаж, 4-й кабинет. Тел.: (+99871) 236-46-55, факс: (+99871) 246-02-04.

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2024г.
(протокол реестра рассылки №__ от «_____» _____ 2024г.)

И.Саифназаров

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философских наук, профессор

Г.М.Шадиметова

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философских наук, доцент

У.Г.Тилавов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор философских наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современном мире проблема коррупции является одной из наиболее глобальных деструктивных проблем постмодернистского социума. Известно, что коррупция, будучи действием против развития общества, вызывает социально-экономические проблемы в любом социуме и государстве. Коррупция стала предметом геополитической дискуссии в развитых странах, создавая искусственные препятствия, оказывающие негативное влияние на все ее сферы. По этой причине глубоко укоренившаяся в обществе коррупция, в том числе ее транснациональный характер, считается самым опасным социальным явлением современности. Феномен коррупции затрагивает не только экономику любой страны, но и ее социальные и политические основы. Она наносит вред международной репутации государства. В результате возникает недоверие к его управленческому аппарату. Поэтому страна с разветвленной системой коррупции становится предметом геополитической дискуссии и создаёт искусственные препятствия, оказывающие деструктивное воздействие на все её сферы. По этой причине глубоко укоренившаяся в обществе коррупция, в том числе ее транснациональный характер, считается самым опасным социальным явлением современности. Потому что основная цель коррупционеров – получить большие богатства за счет преступного поведения, добиться поправки материальных и моральных ценностей в обществе. Поэтому существует необходимость развития творческих тенденций, инновационных способов, а также социальных механизмов борьбы с коррупцией.

По мере того, как проблема коррупции в мире начинает обостряться, возрастает интерес социально-гуманитарных наук к борьбе с ней. В рамках философии, социологии, политологии, экономики и права ведущие мировые научные центры пытаются разработать уникальные творческие методологические механизмы и постмодернистские парадигмы против коррупционного поведения госслужащих. В частности, научные исследования, направленные на решение конкретных проблем в сфере коррупции, проводятся в таких исследовательских центрах, как Human Rights Watch (США), Stiltung Wissenschaft und Politik (Германия), Institute for International Political Studies (Италия), China for International Political Studies (Китай), Chinese Academy of Social Sciences (Китай), Urban institute (США), Transparency International (Германия). Постмодернистские модели предотвращения и устранения обстоятельств, создающих условия для коррупции, этими научными центрами адресуются мировому сообществу, а не отдельному коррупционеру как цели и объекту антикоррупционной деятельности.

В целях исследования коррупции, угрожающей безопасности общества в нашей стране, и выявления стабильной ситуации в обществе наши ученые изучают причины и условия коррупции, способы ее развития и деятельности, формы, особенности общественно опасных действий, начиная с ее истории,

деятельности преступных организаций. Для решения проблем, связанных с ликвидацией преступных организаций, выдвигаются различные подходы, гипотезы, парадигмы. «В нашей стране идет широкомасштабная борьба с коррупцией, которая является тормозом развития. В этой связи тот факт, что мы создали новую структуру – Агентство по противодействию коррупции, является доказательством актуальности и постоянного внимания к этому вопросу»¹. В условиях современной глобализации в Узбекистане проводится масштабная работа по снижению влияния коррупции на развитие общества, достижению прозрачности борьбы с коррупцией в государственных органах, внедрению механизмов социального управления, уважающих честь и достоинство человека. В частности, за последние годы принято более 60 концептуально важных нормативно-правовых документов, направленных на противодействие коррупции, а также 3 государственные программы по дальнейшему совершенствованию системы противодействия коррупции. С 2017 года создано Антикоррупционное агентство Республики Узбекистан.

Данное диссертационное исследование в известной мере служит реализации задач, определенных в Законе Республики Узбекистан №ЗРУ-419 «О противодействии коррупции» от 3 января 2017 года, Указах Президента Республики Узбекистан №УП-5618 от 10 января 2019 года «О коренном совершенствовании системы повышения правосознания и правовой культуры в обществе», №УП-5729 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы противодействия коррупции в Республике Узбекистан» от 29 мая 2019 года, №УП-6013 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы противодействия коррупции в Республике Узбекистан» от 29 июня 2020 года, №УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-4761 «Об организации деятельности Агентства по противодействию коррупции Республики Узбекистан» от 29 июня 2020 года, №ПП-81 «О мерах по внедрению системы рейтинговой оценки эффективности работ по противодействию коррупции» от 12 января 2022 года, №ПП-240 «О мерах по совершенствованию механизмов устранения коррупционных рисков в органах государственного управления и расширению участия общественности в данной сфере» от 11 мая 2022 года, а также других нормативно-правовых актов, связанных с темой настоящего исследования.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Социальное, правовое, экономическое, духовно-культурное развитие информационного общества и демократического государства, формирование системы инновационных идей и путей их реализации».

¹ Выступлении Президента Республики Узбекистан на торжественном собрании, посвященном 29-й годовщине Независимости. 31 августа 2020 года. // <https://president.uz/ru/lists/view/3824>

Степень изученности проблемы. Концептуальные идеи противодействия коррупции в государственном и общественном управлении как методологической основы разрабатывались философами и правоведами всех времен. Сегодня в мире существует множество дефиниций и характеристик коррупции, которые воплощают ее как негативное зло. Ежегодно в различных отраслях проводятся тысячи исследований объективных и субъективных факторов, вызывающих коррупцию, эффективных способов и парадигм ее предотвращения. Создаются даже разные формулы, которым предсказывают искоренение коррупции. Однако наиболее эффективная формула в этой области еще не разработана. Этот порок кажется простым преступлением, на самом деле его причины представляют собой чрезвычайно сложное, гибкое и комплексное явление. Метод, который работает в одной части мира, может не работать в другой. Поэтому каждая страна должна разработать собственную технологию борьбы с этим злом и совместить ее с мировым опытом.

Такие авторы, как Дж.Свенссон, Р.Рейника¹ исследовали влияние коррупции на государственную безопасность с учетом воздействия коррупционных процессов на государства и цивилизации мира.

Структурно-функциональные аспекты проблемы исследованы Р.К.Мертоном, институциональные аспекты – такими европейскими учеными, как М.Вебер, М.Дюверже², американским политологом С.Хантингтоном³.

Феномен коррупции с социально-философской, политической и идеологической точек зрения проанализировали известные философы стран СНГ, такие как И.Винюков, С.В.Ванюшкина, П.Андрукович, Ю.Благовещенский, В.М.Эсипова, В.О.Правников, В.В.Куликова, М.Левина, А.С.Мальчинова, Е.Н.Мысловский, В.А.Номоканова, С.З.Павленко, В.И.Попова, А.В.Пономаренко, Е.С.Сазонова, С.С.Сулакшина⁴.

Узбекскими учеными также изучены социально-политические и правовые аспекты противодействия коррупции с помощью философского подхода. Так, например, в исследованиях И.Саифназарова, Б.Алиева, И.Эргашева, Н.Джураева, Ф.Мусаева, А.Саидова⁵, Ш.Пахрутдинова, А.Рахмонова⁶, М.Бекмурадова, А.Кадырова, В.Кучкарова, Ф.Равшанова, М.Кыргызбоева⁷ освещены роль социальных механизмов в государственном управлении, сущность развития национальной государственности, смена философской парадигмы.

¹Reinikka, R., Svensson, J., Fighting corruption to improve schooling. Journal of the European Economic Association, 3(2-3), 2005. – P. 259–267.

²Дюверже М. Политические партии. – М.: Академический Проект, 2000. - 538 с.

³Хантингтон С. Политический порядок в меняющихся обществах.– М.: Прогресс-Традиция, 2004. – 480 с.

⁴Труды этих авторов приведены в “Списке использованной литературы” диссертации.

⁵Saidov A. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: mustaqil va demokratik taraqqiyotning huquqiy asosi. – Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markaz, 2012. – B. 80.

⁶Рахманов А.Р. Гражданское общество: достижение, проблемы, перспективы. – Ташкент: “Ал-Фаба-сервиз”, 2007. – С.343.

⁷Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – B. 256.

Такие исследователи, как Ф.Джуракулов, З.Замонов¹, Ж.Мавлонов, Ж.Юсубов, Д.Эрназаров, Б.Хасанов, С.Саидов, изучали политическую роль органов государственного управления в противодействии коррупции, особое внимание уделяли взаимному сотрудничеству институтов гражданского общества в решении социально-политических вопросов.

Тем не менее, сегодня вопросы снижения влияния коррупции на управление государством и обществом не изучаются непосредственно с социально-философской точки зрения как комплексное исследование.

Связь темы диссертации с планами научно-исследовательской работы высшего образовательного учреждения, в котором выполнена диссертация. Диссертация выполнена в рамках прикладного грантового проекта PZ-20200222811 Самаркандского государственного университета на тему “Создание платформы, пропагандирующей историко-культурные традиции регионов Узбекистана и их современные проявления (2020-2022 гг.)”

Цель исследования – разработка постмодернистских парадигм, служащих снижению влияния коррупции в управлении государством и обществом в условиях глобализации.

Задачи исследования заключаются в следующем:

раскрыть различные модели и концепции снижения влияния коррупции на государственное и общественное управление на основе духовности и просвещения в развитых странах;

изучить и систематизировать факторы, деформирующие и изменяющие стабильность в отношениях органов власти и граждан в контексте системы изменений организационной парадигмы относительно воздействия коррупции на социум;

